

**YOZISH KO'NIKMALARINI OSHIRISHDA SAMARALI YONDASHUV****Irgasheva Nasiba Dadajonovna**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti,

Andijon mashinasozlik instituti

Annotatsiya: Bu maqola talabalarni hamda chet tili o'qituvchilarni ham yozish ko'nikmlarini oshirish xaqidadir. Ushbu maqolada o'quvchilarning chet tilini o'rganishi uchun qisqa filmlar ko'rsatilib, ular bo'yicha qisqa bayonlar yoki insholar yozdirish mumkinligi va buning uchun o'quvchilarga samarali yozish usuli va talabalarda qanday qilib yozish ko'nikmlarini rivojlantirish keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yozuv, samarali yozish, xato, diktant, matn, yozish ko'nikmasi, o'qish.

Abstract: This article is about improving the writing skills of students and foreign language teachers. In this article, short films are shown for students to learn a foreign language, they can be used to write short reports or essays, and for this, effective writing methods for students and how to develop writing skills in students are widely covered.

Key words: Writing, effective writing, error, dictation, text, writing skills, reading.

Hozirgi davrda nafaqat til o'rganuvchi talabalar, balki chet tili o'qituvchilarni orasida ham yozish ko'nikmlarini oshirish masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi vaqtlarda chet tilini o'rganishni ommalashtirish va kuchaytirish sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-sonli qarorida belgilangan vazifalar shular jumlasidandir. Bu imkoniyatlar va ular taqdim etuvchi imtiyozlarni albatta ijobiy tomonga ulkan qadam deb hisoblasak bo'ladi. Biroq chet tilini o'qitishda o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalari orasida murakkablik jihatidan yozish ko'nikmasi alohida o'rin tutadi. Yozish murakkab va mashaqqatli jarayon bo'lib, o'zlashtirish uchun ko'p vaqtni talab qiladi [1].



Uzluksiz ta'lim zanjirini mustahkam bo'lishi uchun yozish ko'nikmasini tilni o'rganishni boshlagan chog'dayoq to'g'ri tashkil qilish, ya'ni maktabda katta e'tibor qaratish lozim. Bunda o'quvchi va talabalarga ona tilini ham talab darajasida bilishi, bu esa chet tilini o'rganish va o'qitishda yordam berishini ham e'tiborga olish lozim. Ushbu maqolada chet tilini o'rganishda, xususan yozish malakasi ustida ishlashda uchraydigan muammolar va ularni yechish yo'llari yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar chet tilini o'rganishda birinchi bosqichda turli mavzulardagi matnlarni o'qishadi, eshitishadi va matn bo'yicha mashqlarni bajaradi. Talabalar bilim darajasi har xil bo'lgani uchun darsliklardagi ko'p mashqlarni bajarish kutilgan natijani bermaydi, ya'ni talabalar ko'zda tutilgan ko'nikma va malakalarga ega bo'la olmaydi. Talabalarga bilim darajasida topshiriqlar berilsa ham, ular yozishda ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar. Bularning ba'zilari o'z ona tiliga qiyoslab gaplar tuzishdagi xatolar bo'lsa, qolganlari chet tili, xususan ingliz tilidagi grammatik xususiyatlarni xisobga olmay yo'l qo'yiladigan xatolar sirasiga kiradi.

Gapirish ko'nikmasini o'stirishda tinglab tushunish, yozish ko'nikmasi uchun esa o'qish katta rol o'ynaydi. Masalan, o'qilgan xat, hikoya, asar, maqola haqida yozish tushunishni osonlahtirishi mumkin, chunki yozish “talabalarga matndagi asosiy g'oyalarni ko'rinadigan va doimiy ravishda yozib olish, bog'lash, tahlil qilish va shaxsiylashtirish uchun vosita bilan ta'minlaydi.” [2]. Talabalar oliy ta'lim muassasasiga kirmay turib, maktab yoki litseyda ta'lim jarayoni davomida chet tili darslarida muntazam ravishda o'z qiziqishlarida kelib chiqib kitob o'qishi va shu kitobdagi asar bo'yicha fikr almashib bayon yoki insho yozishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buni tatbiq etish uchun albatta maktabning quyi sinflarida chet tili grammatikasi bo'yicha chuqur bilim berilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarning chet tilini o'rganishi kitob bilangina bog'liq bo'lib qolmasligi uchun qisqa filmlar ko'rsatilib, ular bo'yicha qisqa bayonlar yoki insholar yozdirish ham mumkin. Bu vaziyatda o'quvchilarga samarali yozishni tushuntirish zarur. Samarali yozish bo'yicha ba'zi maslahatlarni o'rganish o'quvchilarga yordam berishi mumkin. Samarali yozish:



- mavzuga yo’naltirilgan bo’lib, unda keraksiz yoki bir-biriga bog’liq bo’lmagan ma’lumotlar mavjud emas;
- o’quvchiga g’oyalar oqimini kuzatish imkonini beradigan tashkiliy tartibga ega, chunki u boshi, o’rtasi va oxirini o’z ichiga oladi va bog’lovchi so’zlardan foydalanadi;
- tafsilotlar, misollar, jonli tildan foydalanish va mos so’zlarni tanlash orqali ishlab chiqilgan qo’llab-quvvatlovchi fikrlarni o’z ichiga oladi;
- standart yozma ingliz tilining qoidalariga amal qiladi (masalan, tinish belgilari, bosh harflar va imlo) va jumla tuzilishida xilma-xillikka ega [3].

Talabalar oliy ta’lim muassasasida o’qishni boshlagandagi chet tili bilimi darajasi qanchalik ekanligini bilish juda zarur, chunki buning asosida ularning ehtiyojlaridan kelib chiqib mavzular o’tiladi va talabalar o’zlashitirishi uchun topshiriqlar ishlab chiqiladi. Yozish ko’nikmasini bilish uchun tekshirish ko’proq grammatikadan test beriladi, bunda esa aniq tasavvurga ega bo’lish qiyin. Shuning uchun talabalardan boshqa turdagi, jumladan, diktant, bayon yoki insho yozdirish maqsadga muvofiqdir. O’qituvchilar bulardan qaysi birini tanlashini talabalar bilan suhbatdan keyin belgilagan ma’qul, chunki yuqorida aytganimizdek chet tili bilim saviyasi har xil yoki past bo’lishi mumkin. Shunday holatlar bo’ladiki, talaba hatto diktantni yoza olmaydi. Bunday vaziyatda o’qituvchi yoza olmaydigan talabaga boshqa vazifa, misol uchun, biladigan so’zlaridan 10-20tasini yozdirishi mumkin. Qolgan talabalarga odatdagidek diktant yozdirib dastlabki bilimlari baholanadi.

Diktantlarni tekshirganda talabalar yo’l qo’ygan xatolarini tahlil qilish yordamida kelgusi mashg’ulotlarda ularga qiyinchilik tug’dirgan juhatlarga e’tibor qaratish kerak bo’ladi. Diktantlardagi xato turini qisqa belgi orqali ko’rsatib, talabalarga xatolari ustida ishlashni o’rgatish ham samarali natija beradi, chunki ular shu xatolarni asta-sekin qilmaslikka harakat qiladilar. Xato turlarining belgilari Sp M (spelling mistake – imlo xatosi), WVT (wrong verb tense – noto’g’ri fe’l zamoni), WP (wrong preposition – noto’g’ri predlog) va boshqalar. Talabalar o’z xatolari ustida ishlagandan so’ng yozgan diktantlarini yonidagi sheriklari bilan almashib, bir-birining diktant bo’yicha qilgan xatolarini va to’g’rilangan variantlarini ko’rib chiqishi o’z xatolaridangina emas, balki



boshqalarning xatolaridan ham o'rganish imkonini beradi. Xatolar ustida ishlashning yana bir yo'li proektor yordamida biror talabaning ishini butun sinfga ko'rsatib, xatolarini muhokama qilish va talabalardan to'g'rilashlarini so'rashdir. Bunda talabalar imkoni bor holatlarda xatoni tuzatibgina qolmasdan nima uchun aynan shu variant to'g'riligini asoslab berishi kerak. Shu jarayon yakunida o'qituvchi diktant matnini proektor orqali namoyish qilib, talabalarga o'z xatolarini yana bir marta tekshirib olishi uchun imkon yaratishi mumkin. 2ta dars ketma-ket tashkil qilinsa unumli bo'ladi, ya'ni birida diktant yozilsa, keyin o'qituvchi tekshirsa va keyingi darsda talabalar xatolar ustida ishlab o'rganadilar. Bayon va insholarni tekshirishda ham shu tarzda ishlash mumkin. Lekin bu turdagi yozma ish turlarida ko'p uchragan xatolarni bir talabaning ishi misolida bir qator ko'rsatib, yozma ishlari qaytarib beriladi. Talabalarga xatolarni to'g'rilashi va yozma ishini qayta topshirishi uchun imkon beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozish ko'nikmasini oshirish uchun talabaning bilim darajasidan kelib chiqib yozma topshiriq berilganda xatolarni ko'rsatib va tushuntirish katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari bilimi qolgan talabalaridan yuqoriroq bo'lgan talabalarga murakkabroq yozma ish turini berish va ular bilan ham alohida vaqt ajratib ishlash o'qituvchining e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.

Adabiyotlar:

1. Graham, S. (2018a). A revised writer(s)-within-community model of writing. *Educational Psychologist*, 53, 258–279.
2. Graham, S., Hebert, M. (2011). Writing-to-read: A meta-analysis of the impact of writing and writing instruction on reading. *Harvard Educational Review*, 81, 710–744.
3. Irgasheva, Nasiba Dadajonovna. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish." *Евразийский журнал академических исследований* 2.1 (2022): 21-24..
4. Dadajonovna, Irgasheva Nasiba. "Modern Methods of Teaching a Foreign Language." *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education* 2.6 (2023): 243-248.
5. Dadajonovna, Irgasheva Nasiba. "METAPHORICAL CHANGES IN ENGLISH." *Open Access Repository* 10.1 (2023): 145-147.